53-ILOVA

Bo‘sh ish o‘rinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo‘yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar to‘g‘risidagi

MA’LUMOTLAR

T/r	Bo‘sh ish o‘rinlari soni	Ishga qabul qilish shartlari	Nomzodlarga qo‘yiladigan talablar	Taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar
1	2	3	4	5
“O‘zavtosanoat” AJ				
1	Mahalliylashtirish va kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi	1. Nomzod tomonidan Jamiyatda mavjud bo‘sh ish o‘rinlarini o‘rganib chiqib maqbulini tanlagan holatda o‘ziga tegishli rezyume (ma’lumotnoma yoki CV)ni hr@uzavtosanoat.uz elektron pochtasiga yuborishi lozim; 2. Jamiyatning ishga qabul qilish menejerlari tomonidan mavjud vakant o‘ringa nomzod borligini hr@uzavtosanoat.uz elektron pochtasiga kelib tushgan pochta orqali bilib olishadi hamda nomzodga onlayn so‘rovnomadan o‘tish yuzasidan havola yuboriladi; 3. Nomzodning savolnomada bergan javoblari hamda rezyumesi (ma’lumotnoma yoki CV) menejerlar va vakant o‘rin mavjud bo‘lgan boshqarma (bo‘lim) boshlig‘iga yuboriladi; 4. Jamiyat nomzodga so‘rovnoma yuborilgandan so‘ng besh ish kunida javob qaytarilmasa Jamiyat boshqa nomzod qidirayotganligi to‘g‘risida nomzodni ogohlantiradi; 5. Nomzodning hujjatlaridan kelib chiqib Jamiyatni qiziqtirib qo‘ysa nomzod mas’ullar bilan suhbatdan o‘tish uchun chaqirtiriladi; 6. Suhbatlardan ijobiy hulosa olgan nomzod qonunchilikka muvofiq ishga qabul qilinadi.	1. Soha bo‘yicha oliy ma’lumot (Ish yuritish bo‘yicha inspektor lavozimiga kamida o‘rta maxsus ma’lumot diplomi); 2. Bo‘sh ish o‘rni sohasi yuzasidan 3 yilgacha mehnat staji; 3. Chet tilini bilish ma’qullanadi; 4. Yo‘nalishga tegishli O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidan xabardor bo‘lishi lozim; 5. Nomzodning Kompaniya faoliyatidagi avtomobilsozlik, iqtisodiyot va marketing sohalarida boshlang‘ich ma’lumotlarga ega ekanligi (Bo‘sh ish o‘rni talablariga ko‘ra soha yuzasidan chuqur bilim darajasi kerakligi holatlari bundan mustasno); 6. Tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, halollik va o‘z-o‘ziga talabchanlik; 7. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa talablar.	1. Rezyume (ma’lumotnoma yoki CV); 2. Pasport yoki ID ma’lumotlari; 3. Bog‘lanish uchun telefon raqami; 4. Ma’lumoti bo‘yicha diplom (o‘rta maxsus, professional va oliy); 5. Malaka oshirganlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar (qachon va qaysi tashkilot tomonidan; berilgani, seriyasi va raqami, qaysi mavzu bo‘yicha malaka oshirganligi) (agar mavjud bo‘lsa); 6. Umumiy ish stajini tasdiqlovchi hujjat, shundan bo‘sh (vakant) ish o‘rni uchun talab etiladigan mutaxassislik bo‘yicha.
2	Ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi			
3	G‘aznachilik va moliya boshqarmasi bosh mutaxassisi			
4	Ma’muriyat va hujjatlar ijrosi nazorati boshqarmasi ish yuritish bo‘yicha inspektori			
5	Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti direktori o‘rinbosari			
6	Komplayens, ishlab chiqarish va moliyaviy xavflarni monitoring qilish departamenti bosh menedjeri			
7	Xaridlar transformatsiyasi bo‘yicha ofisi bosh mutaxassisi			
8	Xalqaro moliyaviy hisobotlar va metodologiya boshqarmasi, Xalqaro moliyaviy hisobotlarni konsolidatsiya qilish bo‘limi boshlig‘i			
9	Transformatsiya bo‘yicha loyiha ofisi bosh mutaxassisi			
10	Tashqi iqtisodiy kooperatsiya, investitsiya va innovatsiya departamenti bosh mutaxassisi			
Ma’lumotlar e’lon qilinayotgan davr bo‘yicha jami:			15 ta	